



Jadidchilarning ta'lim shakli

G'ulomov Husanboy
FarDU Tarix fakulteti
3-kurs talabasi.

ABSTRACT

Turkiston jadidlarining harakatlari, yozgan asarlari, ochilgan maktablar, maktablarda o'qitiladigan fanlar, jadidchilik namoyondalari. Jadidlar xalqni ziyoli qilish uchun mahalliy maktablar ochadilar va bu maktablar uchun o'quv qo'llanmalarini yaratadilar.

ARTICLE INFO

Received: 10th May 2022

Revised: 10th June 2022

Accepted: 20th July 2022

KEY WORDS: Qrim, Boqchasaroy, Abdulahadxon, Ubaydulla Asadullaxo'jayev, Munavvarqorining, Chimkent, rustuzem maktablari

Yangi usul maktablari - musulmon maktablarining ta'lim usuli va dasturlarini isloh qilib, bolalarga ona tilida xatsavod o'rgatgan va yangilik g'oyalarini ilgari surgan o'quv yurtlari. Dastlab Qrimning Boqchasaroy shahrida 1884-yil ma'rifatparvar Ismoilbek Gasprinskiy tomonidan tashkil etilgan va u "usuli savtiya tadrijiya" ("rivojlanuvchi tovush usuli") maktabi bo'lgan. XIX oxiri XX asr boshlarida Turkistonda tijorat va sanoatning rivojlanishi bu sohalarni boshqara oladigan shaxslarni yetishtirish ehtiyojini tug'dirdi. Ko'p asrlik maktabxonalar yoshlarga zarur dunyoviy bilim va ko'nikma bermas edi. Shuning uchun yangi usulda ta'lim beradigan maktablar ochila boshladi. 1893-yil Buxoro amiri Abdulahadxon ruxsati va Mo'minxo'ja Vobkendi va g'ijduvonlik Domla Fozil sa'yharakati bilan dastlabki yangi usul maktabi ochildi. O'zbekiston hududida keyingi Yangi usul maktablarim. 1898-yil Qo'qonda Salohiddin domla va Samarqanddagi paxta zavodi huzurida tatar muallimlari tomonidan ochilgan (o'zbeklar bu davrda bunday maktablarni "no'g'oy maktab" deb atagan). 1900-yildan boshlab Toshkentda jadidchilik harakatining yirik namoyandasi Munavvarqori Abdurashidxonov, Samarqandda Abduqodir Shukuriy (Shakuriy) tashkil qilgan Yangi usul maktablarim. ish boshlagan. Bunday maktablar Andijon va Namanganda, Xiva xonligida ham ochilgan. 1908-yil Buxoroda A. Burhonov tomonidan tashkil etilgan boshqa yangi usul maktabi ko'p o'tmay yopib qo'yilgan. Yangi usul maktablarim.da maktabxonadagi yakka o'qitish usulidan sinfda dars berish usuliga o'tildi, sinflarda geogr. xaritalari, globus va boshqalar ko'rgazmali qo'llanmalar paydo bo'ldi. Yangi usul maktablarim.da xatsavod bolalarning ona tilida tovush usuli - usuli savtiyaaa o'rgatilgan. Maktablar asosan 1- 4sinf dan iborat boshlang'ich maktablar bo'lgan. 1913/14 o'quv yilidan ayrim joylarda 2 bosqichli tizim joriy qilina boshlandi. Bu tizimdagi maktablar namuna maktablari deb atalib, ularning 1bosqichi tahziri (boshlang'ich) sinflar, 2bosqichi rushdiy (yuqori) sinflar deyilgan. Xususan, M.Abdurashidxonovning namuna maktabi, A. Shukuriyning Samarqanddagi va A. Ibodiyevttt Qo'qondagi maktabida rushdiy (yuqori) sinflar (5- 6sinf) ham ish boshlagan.

Toshkentdagi jadidchilik XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston mintaqasi va unga tutash hududlar hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy ma'rifiy harakatning tarkibiy qismi. Bu harakat dastlab 19-asrning 80-yillarida Qrimda Ismoilbek Gasprinskiy rahbarligida vujudga kelgan.

Turkistonda jadidchilik harakati vujudga kelishida samarqandlik Mahmudxo`ja Behbudiy muhim rol o`ynagan. Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydulla Asadullaxo`jayev (Ubaydulla Xo`jayev), Toshpo`latbek Norbo`tabekov bu harakat tepasida turgan. Munavvarqori Toshkent jadidlarining otasi deb e`tirof etilgan. Jadidlar musulmon maktablarining ta`lim usuli va dasturlarini isloh qilib, yangi usul (jadid) maktablari ochishgan. 1900 yil Toshkentda Munavvarqori tashkil qilgan yangi usul maktabi ish boshlagan. Keyinchalik u namuna maktabiga aylantirilib, unda 5–6 sinf kabi yuqori sinflar bo`lgan. Toshkentlik ma`rifatparvar Saidrasul Saidazizov shaharda yangi usuldagi mahalliy maktablar ochgan, ularni rus-tuzem maktablaridagi ta`lim-tarbiya metodikasi asosida ishlangan dastur va darsliklar bilan ta`minlagan, o`zi ham o`qituvchilik qilgan. Uning «usuli savtiya» («tovush usuli») metodidagi «Ustozi avval» (1902) darsligi 17 marta nashr etilgan. Munavvarqorining «Adibi avval», «Adibi soniy» (1907), Abdulla Avloniyning «Birinchi muallim» (1910), «Ikkinchi muallim» (1912) kabi darsliklari chop qilingan.

Jadidchilik harakati davomida ularning o`z matbuoti shakllandi. Jadidlar Toshkentda 1905–06 yillarda «Taraqqiy» (muharriri – Ismoil Obidiy), «Xurshid» (muharriri – Munavvarqori), 1907–08 yillarda «Shuhrat» (muharriri – Abdulla Avloniy), «Osiyo» (muharriri – Ahmadjon Bektemirov), «Tujjor» (muharriri – Saidkarimboy Saidazimboy o`g`li), 1913 yilda «Sadoyi Turkiston» (muharriri – Ubaydulla Xo`jayev), 1917–18 yillarda «Najot» (muharriri – Munavvarqori), «Kengash» (muharrirlari – Ahmad Zakiy Validiy va Munavvarqori), «Turon» (muharriri – Muhammad Amin Afandizoda, Abdulla Avloniy), «Ulug` Turkiston» (muharriri – Kabir Bakirov), «Sho`roi Islom» (muharriri – Abdulla Battol), «Turk so`zi» (muharriri – Temurbek Xudoyorxonov), «Turk eli» (tahrir hay`ati) kabi gazetalar va 1915 yil «Al-isloh» (muharriri – Abdurahmon Sodiq o`g`li) jurnalini nashr qilgan.

Bu davrda jadidlar ijtimoiy-siyosiy kuch sifatida ham ko`rindi. Sirdaryo viloyatidan Rossiya davlat dumasi a`ziligiga saylangan Toshkentlik Abduvohidqori Abduraufqorievga Toshkent, Chimkent va boshqa joylarning aholisidan 12 moddadan iborat talabnomani davlat dumasiga topshirish yuklandi. 1907 yil fevral–iyun oylarida bo`lgan birinchi davlat dumasi majlisida bu hujjatni musulmon fraksiyasining raisi Biglovga topshirgan Abduvohidqori oradan ko`p o`tmay qamoqqa olindi va Tulaga surgun qilindi. Abduvohidqori va Ubaydulla Xo`jayev mashhur rus yozuvchisi L.N.Tolstoy bilan uchrashib, u bilan davrning o`tkir mavzulari bo`yicha munozara qilgan.

Mardikorlikka olish (1916) davrida huquqshunos Ubaydulla Xo`jayev raisligida «Turkiston mardikorlikka olish qo`mitasi» tuzilib, u millatparvar boy Mirkomilboy Mirmo`minboyev bilan birgalikda Rossiya jamoatchiligining e`tiborini bu masalaga jalb etish, farmonni bekor qildirish uchun Petrogradga yo`l oldi. Davlat dumasining 1916 yil 13 va 15 dekabrda o`tgan majlislarida podsho Nikolay I.I. ning 1916 yil 25 iyundagi farmoni Rossiya imperiyasining qonunchiligida ko`rsatilgan hollarga zid ekani tan olindi. Jadidlarning mardikorlarni yurtiga qaytarishga urinishlari 1917 yil fevral inqilobi boshlanishi bilan to`la amalga oshdi.

1917 yilda boshlangan jadidchilik harakatining yangi bosqichida Toshkentlik taraqqiyparvarlar ham muhim rol o`ynadi. «Turon» uyushmasi zaminida 1917 yil 14 martda «Sho`roi Islomiya» jamiyati (tashkiloti) tuzildi (asoschilari Munavvarqori, Abduvohidqori, Ubaydulla Xo`jayev). Jamiyat dasturini Munavvarqori yozgan. Toshkentda «Sho`roi Islomiya», «Turon», «Sho`roi Ulamo», «Ittifoqi muslimin» kabi tashkilotlar faoliyat ko`rsata boshladi.

1917 yil 17–20 sentyabrda Toshkentda bo`lib o`tgan Turkiston va Qozog`iston musulmonlarining qurultoyida «Sho`roi Islomiya» va «Sho`roi Ulamo», «Turon» va boshqa siyosiy tashkilotlarni birlashtirish yo`li bilan «Ittifoqi muslimin» siyosiy partiyasini tuzishga kelishildi. Turkistondagi dastlabki oliy o`quv yurti – Turkiston xalq universiteti (hozirgi O`zbekiston milliy universiteti)ning 1918 yilda Toshkentda ochilishi ham jadidlar faoliyati bilan bog`liq. Munavvarqori Abdurashidxonov tashabbusi bilan 1918 yil 12 mayda Turkiston xalq universiteti tarkibida Musulmon xalq dorilfununi tashkil qilindi. 1919 yil Toshkentning Eski shahar qismida jadidlar tashabbusi bilan Turkiston xalq konservatoriyasining milliy (Eski shahar) bo`limi tashkil etildi.

Yangi usul maktablari uchun maxsus binolar qurilmagan. Ular xususiy bo`lib, ko`p hollarda maktab uchun muallimning o`z uyidan yoki biron bo`sh turar joy binolaridan hamda ba`zi shaxslarning tashqi hovlilaridan foydalanilgan. Chor hukumati amaldorlari bunday maktablar milliy madaniyatning o`sishiga

yordam berishidan choʻchib, podsho hokimiyati uchun xatarli deb hisoblalilar. Shuning uchun ularning faoliyatini boʻgʻib qoʻyadigan turli tadbirlar qoʻrildi. Xususan, 1911-yilda mahalliy millat maktablarida (rustuzem maktablarid tashqari) oʻquvchilar qaysi millatdan boʻlsa, muallimlar ham shu millatdan boʻlishlari lozim degan qaror qabul qilindi. Shu qaror asosida tatar muallimlari ishdan boʻshatilib, bir necha oʻnlab Yangi usul maktablarim. yopib qoʻyildi. Yangi usul maktablarim.ning biron joyda rasmiy tasdiqlangan yagona oʻquv rejasi, dasturi boʻlmagan. Darslar muayyan maktab rahbari va muallimlari tomonidan tuzilgan oʻquv rejasi va darsliklar asositsa olib borilgan. Mas, A. Shukuriy oʻz maktabining 1 va 2 bosqich sinflari uchun oʻquv dasturi va rejasini Behbudiy bilan birgalikda tuzgan. Yangi usul maktablarim.da dunyoviy fanlar bilan bir qatorda diniy darslar ham oʻqitilgan. Alifbe kitobi bilan "Alifboyi Qurʼoniy" ham oʻrgatila boshlangan. Dunyoviy fanlardan fizika, kimyo, geom., arifmetika, geogr., ayrim maktablarda 4sinf dan rus tili ham oʻqitilgan. Rus tilidan imtihonlar Toshkentdagi 2 bosqichli rustuzem maktabida oʻtkazilgan va oʻquvchilar bilimi 5 balli tizim asosida baholangan. Yangi usul maktablarim.da yuqori sinflar uchun fizika, kimyo, geom. kabi oʻquv fanlaridan oʻzbek tilida darslik, oʻquv qoʻllanmalari boʻlmagan. Muallimlar bu fanlar boʻyicha tatar, turk tillarida nashr qilingan qoʻllanmalardan foydalanishga majbur boʻlganlar. Ayrim muallimlar oʻzlari darsliklar yozib, shu asosda taʼlim berganlar. Saidrasul Saidazizov "Us todi avval" (1902), Behbudiy "Risolai asbobi savod" (1904), "Risolai jugʻrofiya umroniy" (1905), Munavvarqori "Adibi avval", "Adibi soniy" (1907), Abdulvohid Burhonov "Rahbari xat" (1908), Avloniy "Birinchi muallim" (1910), "Ikkinchi muallim" (1912), Rustambek Yusufbek oʻgʻli "Taʼlimi avval", A.Ibodiyev "Tahsilul alifbo" darsliklarini yozib nashr etishdi.

Yangi usul maktablariga hukumat hech qanday yordam bermagan. Maktablar bolalarning ota-onalaridan har oyda olinadigan mablagʻ hisobiga ishlagan, muallimlarga ham shu hisobdan maosh toʻlangan. Yangi usul maktablarim. da may oyi oxirlarida ota-onalar va mehmonlar ishtirokida imtihonlar oʻtkazilgan. Imtihonda bolalar Qurʼon suralarini yod aytishni, oʻzbek tilidan oʻqish va yozishni, hisobdan 4 amalni oʻrganganliklarini namoyish qilganlar. Yangi usul maktablarim. zamonaviy oʻzbek milliy maktablarining ilk bosqichi boʻlgan. Bu maktablar tajribasi asosida faqat alifbe va oʻqish kitoblarigina emas, oʻzbek tilining qonunqoidalari yoritilgan "Turkcha qoida" va "Imlo" kabi dastlabki oʻquv qoʻllanmalari yaratilgan. 1918-yilgacha Oʻzbekiston hududida 104 Yangi usul maktablarim. boʻlib, ularda 10343 bola oʻqigan. Yangi usul maktablarim. 1918/19 oʻquv yilidan davlat maktablariga aylantirilib, xalq maktablari nomini olgan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda jadidlar xalq taʼlimi, maorifini oshirish uchun taʼlim sohasiga alohida etibor berishadi. Taʼlimni Yevropa taʼlimi kabi rivojlantirishga harakat qildilar. Jadidchilik harakati aʼzolari oʻzlari maktab oʻquvchilari uchun maxsus qoʻllanmalar, darsliklar tayyorlaydilar. Jadidlar chinakam xalq maorifini yuksaltirishga urungan Turkiston farzandlari edilar. Mahmudxoʻja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidhononov, Fitrat kabi jadidchilar ilgʻor harakat aʼzolari hissoblangan. Ularning har biri jadid maktablari uchun qoʻllanmalar yaratib, oʻquvchilar savodini oshirish uchun astoydil harakat qilganlar.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Aliev A. Mahmudxoʻja Behbudiy. T., 1994.
2. Ahmedov S. Oʻlimdan qoʻrqmagan mutafakkir. „Sovet Oʻzbekistoni sanʼati“, 1989-yil, 2-son.
3. "M aʼnaviyat yulduzlari" Toshkent, 1999.
4. Qosimov S. Behbudiy va jadidchilik. „Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati“, 1990-yil